




Hozirda intellektual mulk huquqlarining buzilishi ko'p. Nega?

6-betda o'qing ➤



Buyruqda bor, amalda yo'q ustama

7-betda o'qing ➤

INSON va qonun

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

2023-YIL
28-NOYABR
SESHANBA

№ 47 (1407)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT"

"ADOLAT" milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!



"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!

E'TIROF

DAVLAT BOSHQARUVI SOHASIDA ENG NAMUNALI VAZIRLIK

O'zbekistonda ilk marotaba Birlashgan Arab Amirliklari hukumati bilan hamkorlikda o'tkazilgan "O'zbekiston davlat organlari faoliyati samaradorligini baholash" dasturi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.



Dasturda 17 ta vazirlik va 70 nafardan ortiq vazirlik xodimlari 8 ta nominatsiya (3 ta institutsional va 5 ta individual) bo'yicha ishtirok etdi.

Baholash natijalariga ko'ra Adliya vazirligi "Namunali vazirlik" nominatsiyasida 1-o'rinni; "Funksiya, xizmat va

innovatsiyalarni amalga oshirish" hamda "Integratsiyalashgan mexanizmlar sohasidagi namunali vazirlik" nominatsiyalarida 1-o'rinni egalladi.

Shuningdek, "Namunali vazir o'rinbosari" nominatsiyasida adliya vaziri o'rinbosari Sherzod Rabiyeov 1-o'ringa



munosib ko'rildi.

Bundan tashqari, Adliya vazirligining bo'lim boshlig'i Otabek Haqberdiyev "Namunali ixtisoslashgan xodim" nominatsiyasining sovrindori bo'ldi.

Adliya vazirligi Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi

YANGI DAVLAT XIZMATI KO'RSATILADI



2023-yil 3-noyabrda qabul qilingan "Sport sohasida davlat xizmatlarini ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Hukumat qarori bilan davlat sport ta'lim muassasalariga hamda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi futbol akademiyalariga o'quvchilarning hujjatlarini qabul qilish, ularning o'qishini ko'chirish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlandi.

Unga ko'ra, davlat sport ta'lim muassasalariga o'quvchilarning hujjatlarini qabul qilish uchun ariza beruvchilar har yili quyidagi muddatlarda davlat xizmatlari markaziga yoki YalDXP (my.gov.uz) orqali murojaat qiladi:

- olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari uchun 20-iyundan 20-iyulgacha (shu kuni ham);
- sport maktablari va ixtisoslashtirilgan sport maktablari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari uchun 1-avgustdan 21-avgustgacha.

So'rovnoma to'ldirilib, 3 ish kuni

da ko'rib chiqiladi. Ariza beruvchining yashash manzili bo'yicha sport ta'lim muassasasida tanlagan sport turi bo'lmagan taqdirda, yaqin hududda joylashgan boshqa sport ta'lim muassasasi birlashtiriladi. Ariza beruvchi murojaati bo'yicha yuborilgan sport ta'lim muassasasiga onlayn navbat bo'yicha borib, tegishli hujjatlarni taqdim etadi.

Shunga ko'ra, qabul komissiyasi 1 ish kuni hujjatlarni imtihon topshirish uchun qabul qilish yoki sababini aniq ko'rsatgan holda uni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Murojaat rad etilganda ariza beruvchi 5 ish kuni avvalgi ariza raqamini ko'rsatib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etgan holda qayta

murojaat qilishi mumkin.

Davlat xizmati ko'rsatilgani uchun ariza beruvchidan yig'im undirilmaydi. Mazkur davlat xizmati 2023-yil 1-dekabrda boshlab ko'rsatilishi belgilangan.



Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan har yili 1-yanvargacha davlat xizmati ko'rsatiladigan hududlar ro'yxati, qabul muddatlari tasdiqlanib, o'z rasmiy saytida e'lon qilinadi.

Ushbu tartib boshqa vazirlik va idoralar tizimidagi sport ta'lim muassasalariga hamda nodavlat ta'lim tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Mirkamol MIRMAGDIYEV,

Qibray tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi mas'ul xodimi

2 QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

1-DEKABRDAN
NIMALAR O'ZGARADI?47 TURDAGI MA'LUMOTLARNI SO'RAB
OLISH BEKOR QILINADI

Qonunchilikka ko'ra, "Raqamli hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasida raqamli shaklda taqdim etilishi orqali aholi va tadbirkorlik subyektlaridan 47 turdagi ma'lumotlarni talab qilish bekor qilinadi.

180 KUNDA TO'LASH IMKONIYATI
BERILADI

Chorvachilik xo'jaliklari o'z ehtiyoji uchun import qilgan nasldor qoramollarga hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'ini Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining kafolati asosida 180 kun ichida to'lab berish tizimi joriy etiladi.

ELEKTROMOBILLARNI QUVVATLANTIRISH
STANSIYALARI O'RNATILADI


Quyidagi joylarda elektromobillarni tez quvvatlantirish stansiyalari barpo etiladi:

Nukus shahri, viloyatlar markazlari va viloyat bo'ysunuvda bo'lgan shaharlar hududlaridagi avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari, sig'imi 100 avtomobildan ortiq bo'lgan avtoturargohlar hamda bozorlar hududida;

"O'zbekiston turizm magistrali" turizm transport koridori avtomagistral yo'llarida joylashgan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari, savdo va ko'ngilochar markazlari hududida.

MILLIY TIZIM ISHGA
TUSHIRILADI

Respublikada kuchli zilzilalar haqida erta ogohlantirish milliy tizimi bosqichma-bosqich ishga tushiriladi hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi bunga mas'ul etib belgilanadi.




MY.GOV.UZ ORQALI AMALGA OSHIRILADI

Qonunchilikka ko'ra, maxsus iqtisodiy zonalar hududida investitsiya loyihalarini joylashtirish, ishtirokchilarni ro'yxatdan o'tkazish, ular bilan investitsiya loyihasini amalga oshirish to'g'risidagi bitim va ijara shartnomalarini tuzish bo'yicha davlat xizmatlari YalDXP (my.gov.uz), davlat xizmatlari markazlari yoki maxsus iqtisodiy zonalar direksiyalariga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish orqali amalga oshiriladi.

SHUNDAY QILIB:

- ☒ tashqi reklama bozori ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratish hamda sohada shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan "Tashqi reklama" raqamli monitoring elektron tizimi ishga tushiriladi;
- ☒ davlat mulki bo'lgan yer uchastkalari, binolar hamda inshootlarda yangi o'rnatiladigan tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) qurish huquqi uchun elektron onlayn-auksion yakunlari bo'yicha to'lov hamda tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiyalarida) tashqi reklamani joylashtirish (tarqatish) uchun yig'im o'rniga miqdori ochiq elektron auksion savdolari orqali belgilanadigan tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasini) o'rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo'lgan huquq uchun yagona oylik yig'im joriy etiladi;
- ☒ davlat mulki bo'lgan yer uchastkalarida, bino hamda inshootlarda tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) uchun reklama joyining pasporti hamda ularni o'rnatish uchun shartnomalar ommaviy oferta shaklida "E-auksion" elektron savdo platformasining yagona elektron savdo maydonchasida auksion g'olibiga avtomatik tarzda beriladi;
- ☒ xususiyashtirilgan, ijaraga berilgan yoki nodavlat tashkilotlarga doimiy foydalanish huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkalarida, shuningdek, xususiy mulk bo'lgan binolar va inshootlarda hamda transport vositalarida (yo'nalishlaridagi avtobuslar bundan mustasno) tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish huquqini beruvchi reklama joyining pasporti Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali – YalDXP axborot tizimi orqali beriladi.

MA'MURIY BAYONNOMANI
RASMIYLASHTIRISH TARTIBI
JORIY ETILADI

Transport vositasining egasiga transport vositasini boshqarish huquqi o'tkazilgan shaxs bilan birgalikda tegishli huquqni belgilovchi hujjatni (ishonchnoma va boshqalar) taqdim etgan holda, davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati organlarini transport vositasini boshqarish huquqini o'tkazganligi haqida xabardor qilish huquqi beriladi.

Bunda, xabarnoma olingan kundan vakolatli organ tomonidan Yo'l harakati xavfsizligi xizmatining Yagona avtomatlashtirilgan axborot-tahlil tizimiga tegishli o'zgartirishlar kiritish hamda ushbu transport vositasida sodir etilgan yo'l harakati qoidalarini buzilgan uchun boshqarish huquqi o'tkazilgan shaxsga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirish tartibi joriy etiladi.



Madina HAMDAMOVA,

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi

KONSTITUTSIYADA INKLYUZIV TA'LIM-TARBIYA

Mamlakatimizda fuqarolarning ta'lim olish huquqini to'laqonli ta'minlash maqsadida, qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 50-moddasida ta'lim olishga doir qator yangi qoidalar aks ettirildi. Jumladan, har kim ta'lim olish huquqiga egaligi belgilanib, fuqarolarning ta'lim olish huquqi mustahkamlab qo'yildi.



Shuningdek, davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning turlari va shakllari davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi qayd etildi. Bu esa maktabgacha ta'lim-tarbiyadan to'liq ta'limgacha hamda boshqa ta'lim turlarini, shuningdek, ta'limning kunduzgi, sirtqi, kechki, masofaviy, oilada ta'lim olish, mustaqil ta'lim olish, inklyuziv ta'lim va hokazo shakllarini tashkil etish va faoliyat yuritishiga imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, davlat maktabgacha ta'lim-tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilandi. Bu o'z navbatida, davlat yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, mavjudlarini esa

ta'mirlash, shu jumladan davlat, davlat-xususiy sheriklik va xususiy bog'chalarni ko'paytirish, yangi bog'chalarni tashkil etishga imtiyozlar va subsidiyalarni berish, natijada bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni yuqori ko'rsatkichlarga yetkazish choralarni ko'rishini anglatadi.

Mazkur moddaga kiritilgan qo'shimchalardan biri bu – davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlashi hamda umumiy o'rta ta'lim majburiyigidir. Bu maktab yoshidagi har qanday bolani albatta maktabda o'qishi shartligini hamda bunga to'ssinlik qilishga hech kimning haqqi yo'qligini bildiradi va ushbu majburiyat ta'lim oluvchiga ham, ta'lim tashkilotiga

ham birdek mas'uliyat yuklaydi.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan maktabgacha ta'lim-tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratida ekanligi, ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim-tarbiya ta'minlanishi mustahkamlab qo'yildi.

Ushbu normalar jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish va shunday nuqsonlarga ega bolalarning yakkalanib qolmasligi, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun juda muhim hisoblanadi.

XORIY TAJRIBASI QANDAY?



Ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ta'limga oid qoidalar inson huquqlariga oid ko'plab xalqaro hujjatlarda hamda Germaniya, Portugaliya, Bolgariya, Urugvay va boshqa bir qator davlatlarning konstitutsiyalarida belgilab qo'yilganini ko'rish mumkin.

Jumladan, **Turkmaniston Respublikasi** Konstitutsiyasining 55-moddasiga ko'ra, har kim bilim olish huquqiga ega hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir, har kim uni davlat ta'lim muassasalarida bepul olish huquqiga ega. Davlat har bir shaxsning qobiliyatiga muvofiq kasb-hunar ta'limiga ega bo'lishini ta'minlaydi.

To'lanadigan ta'lim faoliyatini amalga oshirishga qonun hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibda yo'l qo'yiladi. Majburiy davlat ta'lim standartlari barcha ta'lim muassasalari uchun belgilangan.

Shuningdek, **Qozog'iston Respublikasi** Konstitutsiyasining 30-moddasiga muvofiq, fuqarolarga davlat ta'lim muassasalarida bepul o'rta ta'lim olish kafolatlanadi. O'rta ma'lumot talab qilinadi. Fuqaro davlat oliy ta'lim muassasasida tanlov asosida bepul oliy ta'lim olish huquqiga ega.

Xususiy ta'lim muassasalarida pullik ta'lim olish qonun hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibda amalga oshiriladi. Davlat ta'limning majburiy standartlarini belgilaydi. Har qanday ta'lim muassasalarining faoliyati ushbu standartlarga mos kelishi kerak.

Qirg'iz Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida esa, har kim bilim olish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Ushbu moddaga ko'ra, asosiy umumiy ta'lim majburiydir. Har kim davlat ta'lim tashkilotlarida maktabgacha, asosiy umumiy, o'rta umumiy va boshlang'ich kasb-hunar ta'limini bepul olish huquqiga ega.

Davlat har bir fuqaroga maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib, o'rta umumiy ta'limgacha davlat, rasmiy va chet tillaridan birini o'rgatish uchun sharoit yaratadi. Davlat ta'lim muassasalarining davlat, munitsipal, xususiy va boshqa shakllarini rivojlantirish uchun teng sharoit yaratadi.

Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi, fuqarolarning kasbiy malakasini oshirishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yordam beradi.

Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida ham bilim

olish huquqi ko'rsatilgan. Ya'ni, unga ko'ra, har bir inson bilim olish huquqiga ega. Umumiy asosiy ta'lim majburiydir. Davlat ta'lim muassasalarida umumiy asosiy majburiy bepul ta'limni davlat kafolatlaydi.

Har bir shaxs qonun hujjatlarida belgilangan doirada davlat ta'lim muassasalarida bepul umumiy o'rta, boshlang'ich, kasb-hunar, o'rta maxsus va oliy kasb-hunar ta'limi olishi mumkin. Ta'limning boshqa shakllari qonun bilan belgilanadi.

Ozərbaycan Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasi ta'lim olish huquqiga taalluqli bo'lib, unga ko'ra, har bir fuqaro bilim olish huquqiga ega. Davlat bepul majburiy umumiy o'rta ta'lim olish huquqini kafolatlaydi. Ta'lim tizimi davlat tomonidan nazorat qilinadi.

Davlat iste'dod egalarining moddiy ahvolidan qat'iy nazar, ta'limni davom ettirishlarini kafolatlaydi, ta'limning minimal standartlarini belgilaydi.

Moldova Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasiga binoan ta'lim olish huquqi majburiy umumiy ta'lim, litsey va kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, shuningdek, tayyorlash va malaka oshirishning boshqa shakllari bilan ta'minlanadi. Davlat qonunga muvofiq shaxsning ta'lim va ta'lim tilini tanlash huquqini ta'minlaydi. Barcha darajadagi ta'lim muassasalarida davlat tilini o'rganish ta'minlanadi.

Davlat ta'limi bepul hisoblanadi. Ta'lim muassasalari, shu jumladan nodavlat ta'lim muassasalari qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etiladi va o'z faoliyatini amalga oshiradi. Oliy ta'lim muassasalari avtonomiya huquqiga ega.

Davlat litseyi, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limdan har kim o'z qobiliyatiga qarab birdek foydalanishi mumkin. Davlat qonunga muvofiq diniy ta'lim erkinligini ta'minlaydi. Davlat ta'limi dunyoviydir. Bolalar uchun ta'lim sohasini tanlashning asosiy huquqi ota-onalarga tegishli.

Belarus Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida ham har kim bilim olish huquqiga egaligi ko'rsatilgan bo'lib, ushbu moddaga muvofiq, umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limining mavjudligi va bepulligi kafolatlanadi.

O'rta kasb-hunar va oliy ta'lim har kimning qobiliyatiga ko'ra hamma uchun mavjud. Har bir shaxs tanlov asosida davlat ta'lim muassasalarida tegishli ta'limni bepul olishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 43-moddasiga asosan, har kim bilim olish huquqiga ega. Davlat yoki munitsipal ta'lim muassasalari va tashkilotlarida maktabgacha, asosiy umumiy va o'rta kasb-hunar ta'limining umumiy mavjudligi va bepulligi kafolatlanadi.

Har kim davlat yoki munitsipal ta'lim muassasasida hamda tashkilotda tanlov asosida bepul oliy ma'lumot olish huquqiga ega. Asosiy umumiy ta'lim majburiydir. Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bolalarning asosiy umumiy ta'lim olishlarini ta'minlaydi. Rossiya Federatsiyasi federal davlat ta'lim standartlarini belgilaydi, ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalashning turli shakllarini qo'llab-quvvatlaydi.

Farrux JO'RAYEV,

Adliya vazirligi mas'ul xodimi

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA



BILASIZMI?

SUDLANMAGANLIK
TO'G'RISIDAGI
MA'LUMOTNOMA QAYERDAN
OLINADI?

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 4-oktabrdagi "Ichki ishlar organlari sohasida davlat xizmatlari ko'rsatishining ayrim ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan fuqarolar sudlanmaganlik (yoki sudlanganlik) to'g'risidagi ma'lumotnomani davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YalDXP) orqali olishlari mumkin.

Sarvar XOLMUXAMATOV,

Qibray tuman adliya bo'limi davlat
xizmatlari markazi direktori

QORAQALPOG'ISTON



Ellikqal'a tuman tibbiyot birlashmasi "Qumbosgan" oilaviy poliklinikasi umumiy amaliyot shifokori D.E. ishga kirganiga bir yil bo'lgani, lekin ish haqiga qo'shimcha ustama pul-lari to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

Murojaatni o'rganish jarayonida Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 16-yanvarda ro'yxatdan o'tkazilgan "Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida"gi Nizomning 13 va 14-bandlariga asosan yangi ish boshlagan tibbiy oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga ular ishga qabul qilingan kundan boshlab, oylik ish haqi to'lovlari-ga maxsus oylik ustama qo'shimcha tarzda to'lanishi belgilangan bo'lishiga qaramasdan, 12 million so'm miqdoridagi ustama asossiz to'lab berilmayotgani aniqlandi.

Ushbu ustama pulini undirish maqsadida tuman adliya bo'limi tomonidan tuman tibbiyot birlashmasi rahbari nomiga taqdim-noma kiritildi va mutaxassisning ish haqiga qo'shimcha ustama puli to'lab berilishi ta'minlandi.


Alisher QADIROV,

Ellikqal'a tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish
markazi boshlig'iMUTAXASSISGA
USTAMA
TO'LANDI

TOSHKENT



Qibray tuman adliya bo'limi tomoni-dan 2023-yil mobaynida fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari manfaatini ko'zlab, sudlarga 90 dan ziyod da'vo arizalari kiritildi. Ularning 98 foizi qanoatlantirildi. Jumladan, "A.O." MChJ rahbari U.X. tuman adliya bo'limiga tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan kreditor qarzdorligi to'lanmayotganidan norozi bo'lib mu-rojaat qilgan.

"UNUTILGAN"
IKKI MILLIARD
SO'M...

Aniqlanishicha, "A.O." MChJ (Autorsorser) nizom asosida faoliyat yurituvchi U.X. va tu-man maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (Buyurtmachi) o'rtasida 2023-yil 27-yan-varda 2-sonli shartnoma tuzilgan.

Biroq, tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan 2023-yil 7-avgust holatiga ko'ra "A.O." MChJga nisbatan 1 mil-liard 902 million 308 ming 471 so'mlik kre-ditor qarzdorligi vujudga kelgan bo'lib, to'lab berish choralari ko'rilgan.

Vaholanki, Fuqarolik kodeksining 324-moddasida qarzdor majburiyatni bajar-magan yoki lozim darajada bajarmagani tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lashi shartligi belgilangan. Mazkur kodeks-ning 703-moddasida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi bo'yicha ijrochi buyurtmachining topshirig'i bilan ashyoviy shaklda bo'lmagan xizmatni bajarish, buyurt-machi esa bu xizmat uchun haq to'lash majburiyatini olishi belgilangan. Shuning-dek, O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy baza-si to'g'risida"gi qonunining 24-moddasiga muvofiq, taraflardan biri shartnoma majburi-yatlarini bajarmagan yoki lozim darajada ba-jarmagan taqdirda, bu taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'lashi boshqa qonun-chilik hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha tarzda javobgar bo'lishi belgilangan.

MChJning murojaati qonun doirasida o'rganib chiqilib, "A.O." MChJ manfaatida javobgar – tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga nisbatan kreditor qarzdorli-gini undirish to'g'risida Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan tuman maktab-gacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan 1 milliard 902 million 308 ming 471 so'mlik kreditor qarzdorligi to'lab berildi.


Jahongir ABDUSATTOROV,

Qibray tuman adliya bo'limi bosh
maslahatchisi

SAMARQAND



So'nggi paytlarda avtotransport vositalaridan foydalanishda aho-liga qo'shimcha qulayliklar yaratish, yo'lovchi tashish transpor-ti tizimini yanada yaxshilash, ushbu yo'nalishda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, ishsizlikni qisqartirish hamda transport xizmatlari bozorini rivojlantirish, norasmiy bandlikni kamaytirish-ga katta ahamiyat berilmoqda. Yaqin-yaqingacha tayinli ish topa olmay norasmiy tarzda yo'lovchi tashish bilan shug'ullanishga majbur bo'lgan shaxslar endilikda ushbu ish faoliyatini qonuniy-lashtirib, o'zini o'zi band qilmoqda.

LITSENZIYA
OLISH UCHUN
ESHIKMA-ESHIK
YURISHGA
HOJAT YO'Q

Prezidentimizning 2022-yil 7-iyul-dagi "Avtotransport vositalarini bosh-qarishda va yo'nalishsiz taksi faoli-yatini amalga oshirishda qo'shimcha qulayliklar yaratish to'g'risida"gi qa-rori bilan sohada ana shunday qu-layliklar joriy etildi. Xususan, 2022-yil 1-sentabrdan 2024-yil oxiriga qadar yo'lovchilarni haydovchidan tashqari to'rttadan ortiq bo'lmagan o'rindiq-larga ega bo'lgan yengil av-totransport vositalarida tashish faoli-yati o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoli-yat (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxati-ga kiritildi.

Buning uchun fuqaro litsenzi-ya olishi talab etiladi. Litsenziya varaqasi berishda avtomobilning ekspluatatsiya davriga qo'yilgan talab bekor qilingan bo'lib, mazkur faoliyat bilan shug'ullanuvchilar bir yilda bir marotaba transport vositasini texnik

ko'rikdan o'tkazishi, "Uztrans" ax-borot tizimiga kiritilgan ko'p tarmoqli poliklinika va xususiy tibbiyot muas-sasalari orqali bir yilda bir marotaba tibbiy ko'rikdan o'tishi shart.

Avtomobil transportida yo'lovchi-larni tashish faoliyati uchun litsenzi-ya oluvchi shaxs avval soliq idoralari orqali o'zini o'zi band qilishi talab etilar edi. Endi bu ovoragarchilikka barham berildi. Ya'ni, avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklar-ni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha ta-shishga litsenziya oluvchilar davlat xizmatlari markazining o'zida yoki my.gov.uz portali orqali xohishiga ko'ra kompazit tartibda litsenziya-ga ariza yuborishi mumkin. Endi fuqarolarning bitta litsenziya uchun ikki eshikni taqillatishiga hojat yo'q. Ariza ikki ish kuni mobaynida ko'rib chiqiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil

30-iyuldagi qarori bilan tasdiqlan-gan ma'muriy reglament asosida avtomobil transportida yo'lovchilar-ni shaharda, shahar atrofida, sha-harlararo, xalqaro, shuningdek, yuk-larni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash yu-zasidan davlat xizmatlari ko'rsatib kelinmoqda. Bundan tashqari, tijorat asosida amalga oshiriladigan xud-di shu yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyati ham litsenziyalanishi ke-rak. Bunda muhim jihati shundaki, litsenziyaning amal qilish muddati cheklanmaydi. Ariza beruvchi davlat xizmatlari markazi orqali yoki onlayn shaklda murojaat qiladi.

Ushbu jarayonda davlat xizmatla-rini ko'rsatganlik uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida yig'im va faoliyatni amal-ga oshirish yuzasidan litsenziya varaqalarini berish uchun "Davlat boji to'g'risida"gi qonunda belgilan-gan miqdorlarda davlat boji undi-riladi. Yo'nalishsiz taksi faoliyati ma-salasiga kelsak, bu uchun litsenziya varaqasi berilganida davlat boji bar-cha turdagi tashuvchilardan faqat yilliga bazaviy hisoblash miqdorining bir barabari miqdorida undiriladi. Bunda davlat xizmatlarini ko'rsat-ganlik uchun yig'im undirilmaydi.

Joriy yilning 9 oyida birgina Sa-marqand shahar adliya bo'limi davlat xizmatlari markaziga mazkur masa-lada 8 mingdan ortiq murojaat kelib tushgan bo'lib, ularning 6 mingdan ziyodi onlayn kelib tushgan. Fuqa-rolar mazkur xizmatdan "Fuqaro e'tibor markazida" tamoyili asosida qulay va oson foydalanishmoqda.

Hazrat MEYLIQULOV,

Samarqand shahar adliya bo'limi
davlat xizmatlari markazi mas'ul
xodimi

NIYATIM EZGU, MAQSADIM ULUG'

O'tgan 2022-yilda Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 30 yillik bayramini ko'tarinki kayfiyatda nishonlagandim. Bu yil ham xuddi shunday bo'ladi. Albatta, har ikkala yildagi xushkayfiyatimning alohida sabablari bor.

Boisi shundaki, bir yil avval Toshkent davlat yuridik universitetiga o'qishga kirgandim. Ya'ni, tengdoshlarim qatori Konstitutsiyamizda belgilangan bilim olish huquqimdan foydalangan holda malakali ustozlar, professor-o'qituvchilar qo'lida tahsil ola boshladim.

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlamoqchiman, huquqshunoslik kasbiga qiziqishim oilamizda paydo bo'lgan. Aniqrog'i, dadam huquqshunos-jurnalist bo'lganlari bois yozgan sud ocherklari, tahliliy-tanqidiy maqolalari, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy huquqqa oid materiallarini o'qib borardim. Shunda qaysidir jinoyatning ochilishi, hamyurtlarimizni qiynab kelayotgan huquqiy masalalar tahlili, tajribali huquqshunoslarning hayoti va mashaqqatli mehnat faoliyatiga bag'ishlangan maqolalar hamda detektiv hikoyalar e'tiborimni tortgan. Natijada "Kelajakda albatta huquqshunos bo'laman" degan ezgu niyat paydo bo'lgan ko'nglimda.

Dastlabki o'quv yilida, 1-bosqichda o'tilgan "Konstitutsiyaviy huquq", "Davlat va huquq nazariyasi", "Yuristlar uchun xorijiy til", "Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar", "Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya" va "Fuqarolik huquqi" singari fanlar tanlagan kasbim naqadar mashaqqatli ekanligini, buning uchun tinimsiz o'qish, izlanish lozimligini anglatdi.

Universitetda o'qish barobarida ingliz tilini o'rganishni davom ettirib, mazkur tilni bilish bo'yicha "IELTS" darajamni yana bir pog'onaga ko'tardim.

Bu yil esa siyosiy huquqimdan ilk bor foydalalanib, 2023-yil 30-aprel kuni bo'lib o'tgan umumxalq referendumida ishtirok etdim. Boshqacha aytganda, Konstitutsiyamizning yangi tahriri ma'qullanishida hissam qo'shilganidan mamnunman. E'tirof etish kerakki, Bosh qomusimizning yangi tahririda biz – yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar ko'lami juda kengaydi. Jumladan, 51-moddasida "Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli" deya belgilandi. Mazkur norma avvalgi Konstitutsiyamizda mavjud emas edi.

Albatta, Konstitutsiyamizga yana bir qator yangi modda hamda normalar kiritilganki, bularning barchasi respublikamizda inson qadrini ulug'lash, uning huquq va erkinliklarini to'laqonli ta'minlashga xizmat

qiladi. Bu o'rinda asosiy qonunimizning 54-moddasida "Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi" degan qoida

qayd etilganini ham alohida tilga olmoqchimiz. Shu bois, men ham kelajakda huquqshunos bo'lib yetishgach, ana shu ezgulikka o'z hissamni qo'shish uchun fidoyilik bilan mehnat qilishni, bu orqali jannatmonand Vatanim oldidagi farzandlik burchimni ado etishni, qolaversa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning biz – yoshlarga bildirayotgan ishonchini oqlashni dilimga tugdim.

Abdulbosit USMONALIYEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi





Yangilangan Konstitutsiyamizda ham yoshlarga oid qator normalar o'z ifodasini topdi. Alohida bir bobning oila, bolalar va yoshlar masalasiga bag'ishlangani yurtimizda yoshlar huquqlarini himoya qilishga yuqori darajada e'tibor qaratilayotganining yorqin isbotidir. Konstitutsiyamizda o'z aksini topgan yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi normalar kelajak egalari bo'lgan yosh avlod uchun katta imkoniyatlar yaratadi, albatta.

Mustaqil yurtimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning huquqiy bilimi va madaniyatini oshirish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, ta'lim muassasalarining samaradorligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Konstitutsiya va

yoshlar



Mamlakatning taraqqiyoti mazkur davlat hududida istiqomat qiluvchi fuqarolarning qonunlardan va boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan qanchalik xabardorligi va ushbu qonunlarga nisbatan munosabatiga bog'liq. Aholining huquqiy madaniyatini doimiy ravishda yuksaltirib borish, respublikamizdagi barcha davlat boshqaruv organlarining asosiy vazifalaridan biridir.

Konstitutsiyamizning alohida bir bobi – XIV bob oila, bolalar va yoshlar masalasiga bag'ishlangan. Bosh qomusimizning 79-moddasiga ko'ra, davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish uchun bir qancha

normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ularni umumlashtiruvchi konstitutsiyaviy normaga ehtiyoj sezilgani bejiz emas. Bu bilan, davlat tegishli shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha majburiyatlarni zimmasiga oldi. Ushbu modda mamlakatimizda yoshlarning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun tegishli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish maqsadida kiritilgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur norma mamlakatning yangi rivojlaniish bosqichida yoshlarga oid amal-

ga oshirilayotgan siyosatni yanada chuqurlashtirish va takomillashtirish, samaradorligini ko'tarish, yosh avlodning bugungi kundagi zamonaviy ijtimoiylashuv jarayonlariga ko'mak berish, shuningdek, ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan.

Asosiy Qonunimizning 78-moddasiga ko'ra, farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur o'zgarishlar davlatning yoshlar oldidagi mas'uliyatini yanada kuchaytiradi, albatta. Ushbu normalar bilan yoshlar huquqlari himoyalandi. Bu esa ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirokini rag'batlantirishni kafolatlaydi. Bundan tashqari, yoshlarning ta'lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo'lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish davlatning konstitutsiyaviy majburiyatini amalga oshirishni ta'minlashda yangi shart-sharoitlar yaratadi.

Odil NABIYEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

6 BONG

88 SO'RAGAN EDINGIZ



- Qaysi hollarda sud tomonidan XUSUSIY AJRIM CHIQUARILADI?



– Fuqarolik protsessual kodeksining 275-moddasiga ko'ra, ishni ko'rish chog'ida davlat organining yoki boshqa organning, tashkilotning, mansabdor shaxsning yoki fuqaroning faoliyatida qonunchilik hujjatlari buzilganligi aniqlangan taqdirda, ularning ishda ishtirokidan qat'iy nazar, sud xususiy ajrim chiqarishga haqlidir.

Sud xususiy ajrim bilan tegishli organ-dan yoki mansabdor shaxsdan qonunchilik hujjatlarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi masalani o'zlarining vakolatiga muvofiq ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin.

Xususiy ajrim tegishli davlat organ-larga va boshqa organlarga, tashkilotlarga, mansabdor shaxslarga yuboriladi. Ular ko'rilgan choralar to'g'risida bir oylik mud-datda sudga xabar qilishi shart.

Sudning xususiy ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Agar sud ishni ko'rayotganida shaxs-larning xatti-harakatlarida jinoyat alo-matlarini aniqlasa, u jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal etish uchun bu haqda prokurorga tegishli materiallarni ilova qilgan holda xabar qiladi.

Shuningdek, Oliy sud Plenumining 2019-yil 25-oktabrdagi "Fuqarolik ish-lari bo'yicha birinchi instansiya sudning ajrimlari to'g'risida"gi 19-sonli qarorining 13-bandida sudlarning e'tibori, FPKning 275-moddasida nazarda tutilgan sudning xususiy ajrim chiqarish huquqi, sudning davlat organining yoki boshqa organ-ing, tashkilotning, mansabdor shaxsning yoki fuqaroning faoliyatida, ularning ish-da ishtirokidan qat'iy nazar, ishni ko'rish chog'ida aniqlangan qonun hujjatlari buzilishiga nisbatan munosabat bildirish vositasi ekanligiga qaratilishi belgilangan. Xususiy ajrim ko'rilayotgan huquqiy mu-nosabat predmeti doirasidan chetga chi-qadigan masala bo'yicha sud tomonidan chiqariladi.

Savolga fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudi sudyasi Mavluda BOBORAIMOVA javob berdi



Intellectual mulk aqliy yoki ijodiy faoliyat mahsuli hisoblanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, yaratilgan obyekt-ga nisbatan tegishli huquqni anglatadi. Misol uchun, adib tomonidan yozilgan asarlar, rassom tomonidan chizilgan surat, olim tomonidan yaratilgan ixtiroga bo'lgan huquq kabilarni nazarda tutish mumkin.


O'zbekistonda intellektual mulkni himoya qilish yuzasidan huquqiy ekotizim yaratilgan. Jumladan, intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha mamlakat tarixida ilk marotaba davlat rahbari tomonidan milliy strategiya imzolandi.

Shuningdek, intellektual mulkni bevosita tartibga solishga qaratilgan 10 ga yaqin qonun va o'ndan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilingan. In-tellektual mulkka bo'lgan huquqlarni buzgan shaxslarga nisbatan ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan. Xususan, so'nggi yillarda ijodkorlar-ni huquqlari sudga himoya qilinayotgani bunga yaqqol misoldir.

Mamlakatning oliy maqomdagi yuridik hujjati hisoblangan Konstitutsiyamizda intellektual mulk huquqining tan olinishi ilmiy-ijodiy faoliyatni rag'batlantirishga munosib xizmat qiladi. Davlat nafaqat intellektual mulk egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini tan oladi, balki ularni himoya qiladi. Shu munosabat bilan muallif yoki huquq egasi yangi in-tellektual mulk obyektlarini yaratishga qiziqadi, mahalliy tadbirkorlar o'z brendini yaratishdan manfaatdor bo'ladi.

"Badiiy ijod erkinligi" tushunchasining Konstitutsiyaga kiritilishi badiiy ijod vakillarining huquqlarini himoya qilish va ularga o'z ijodiy faoliyatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

Hozirda intellektual mulk huquqlarining buzilishi ko'p. NEGA?



Badiiy ijod adabiyot, musiqa, teatr, rassomlik, haykaltaroshlik, grafika, dizayn, arxitektura, sha-harsozlik, fotografiya va boshqa ko'plab ijodiy ishlarni qamrab oladi.

O'zbekiston intellektual mulk sohasidagi xalqaro hujjatlarga qo'shilib, xalqaro standartlarni implementatsiya qilmoqda. Bu sohada oldimizda turgan asosiy masalalardan biri bu – O'zbekis-ton Respublikasi intellektual mulk tizimining Jahon savdo tashkiloti (JST) Intellektual mulk huquqi savdo aspektlari bo'yicha bitim (TRIPS) normalari va tamoyillariga muvofiqligini tahlil qilish hisobla-nadi. Mazkur bitim JSTga qo'shilish yuzasidan qo'yilishi kerak bo'lgan muhim qadam bo'lib, unga a'zo barcha mamlakatlar boshqa a'zo davlatlar fuqarolari ham o'zlarining fuqarolari kabi huquqiy himoya qilinishini talab etadi.

Afsuski, bugungi kunda in-tellektual mulk, aynan mualliflik

huquqi sohasida jamiyatimizda turli fikrlar va qarashlar mavjud. Aynan, shu qarashlar sababli ham jamiyatdagi insonlar ikki guruhga bo'linib qolgan. Jamiyat a'zolari-niing asosiy qatlami hali intellektual mulk masalasida juda tor fikrga ega bo'lgan shaxslar. Zero, ularning qarashlaricha, masalan "She'rini ruxsatsiz qo'shiq qilgani uchun falonchi shoir mashhur xonandani sudga beribdi. Iye, shunaqa shoir bor ekan-da?! She'ridan foydalan-gani uchun xursand bo'lish o'rni-ga darrov sudga beribdi-da!". Ja-moatchilik orasida mualliflik huquqi obyektlariga (she'riy hamda nasriy asarlar, qo'shiqlar, filmlar) moddiy mulk kabi munosabatda bo'lmay, uning qiymatiga past nazar bilan qarash shakllangan. Shuni unut-maslik kerakki, mualliflik obyektla-rining ham xuddi sizning moddiy mulkingiz, ya'ni mashinangiz yoki qimmatbaho taqinchog'ingiz kabi o'zining egasi va bahosi bor. Shun-



day ekan, "She'rdan ruxsatsiz foy-dalansa, nima qilibdi" deyishdan oldin o'zimizning mulkimizni biro-v ruxsatsiz olib qo'ysa va foydalan-sa, qanday ahvolga tushishimizni o'ylab ko'rsak, shoir va boshqa ijodkorlarimizni tushungan bo'lar-dik. Chunki ular o'z mulklarining egasi hisoblanadi. Asardan faqat muallifning yoki u vakolat bergan shaxs bilan tuzilgan yozma shart-noma asosida foydalanish mumkin. Qonunga rioya qilmaslik jinoiy, ma'muriy va fuqaroviy javobgar-likni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda internet foy-dalanuvchilarining asosiy qismi "Internetda joylashtirilgan barcha ma'lumotlar "jamoat mulki", shu sababli ulardan foydalanish bepul hamda qonunda bunga cheklov yo'q", deb noto'g'ri o'ylashadi. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi O'zbekis-ton Respublikasi qonunining 35-moddasiga asosan mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin 70 yil davomida amal qiladi. Ushbu muddat o'tgach asar jamoat mul-kiga aylanadi. Shu sababli internet sahifalaridan joy olgan mualliflik huquqi obyektlarining hammasi ham jamoat mulki emas va ulardan foydalanilganda huquq egasidan ruxsat so'ralishi shart.


Bugun har qadamda intellek-tual mulk huquqlarining buzilishi-ga guvoh bo'layapmiz. Masalan, kimdir ijodiy ishingizdan – so'z yoki rasmlaringizdan, blogpost-laringizdan ehtimol, ruxsatingizsiz foydalanadi yoki kimdir o'xshash mahsulotlarni sotish uchun siz ish-latayotgan savdo belgisidagi so'z, ibora, belgi yoki logotipdan foyda-lanib, iste'molchilarni chalkashtirib yuborishi mumkin.

Bugungi kunda intellektual mulk himoyasining eng samarali yo'li – bu jamiyatda intellektual mulkka bo'lgan hurmat hissini shakllantirish va aholining huquqiy madaniyatini oshirishdan iborat. Qachonki, jamiyatda intellektual mulk buzilishiga nisbatan toqatsiz-lik ruhi shakllansa, intellektual mulk daxlsizligi ta'minlansa, ixtirochi va ijodkorlarga yaratgan obyekt-lari uchun munosib haq to'lansa, ushbu soha investitsiyalar uchun jozibador bo'ladi va shubhasiz iqtisodiyotni taraqqiy ettirishga zamin yaratiladi.

Madina MAHMUDOVA,
Adliya vazirligi Intellektual mulkni huquqiy himoya qilish boshqarmasi mas'ul xodimi

Huquqshunoslikda umumiy prinsipial qoida bor – mabodo qonunchilikda nazarda tutilmagan bo'shliqlar, noaniqliklar va shubhalar bo'lsa, unda masala fuqarolar foydasiga hal qilinishi kerak. Oxirgi o'zgarishlarda yoki oldingi tahrirda bu normalar umuman bo'lmagan. Ammo yangi tahrirda bu Konstitutsiyaviy norma sifatida qayd qilindi.

Noaniqliklar



INSON FOYDASIGA TALQIN ETILADI



Shundan kelib chiqib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasi beshinchi qismida bu norma quyidagicha mustahkamlandi: "Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi".

Endilikda, Konstitutsiyaga ko'ra, qonunchilikda aniq belgilab qo'yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlatning emas, inson foydasiga hal etilishi lozim. Masalan, davlat organlari fuqarolarga yer ajratish yoki tadbirkorlik faoliyatini

yuritish uchun ajratilgan yer uchastkasida qurilgan binoga egalik huquqi berish ma'muriy tartib-tamoyillarga rioya etilmagan degan, byurokratik rasmiyatchilik bilan sudga da'vo bilan chiqishadi. Bunday hollarda shaxs (tadbirkor) vijdonan harakat qilgan, o'z majburiyatlarini mazmunan bajaragan bo'lsa, noaniqlik uning foydasiga talqin qilinishi lozim bo'ladi. Yoki, pensiya (nafaqa) tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak.

Bunga qadar, ushbu umumiy qoida deyarli barcha huquq tarmog'ida

qo'llanib kelingan bo'lsa-da, Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan edi. Jumladan, amaldagi Soliq kodeksining 13-moddasida (soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi) soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin etilishi, Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasida (aybsizlik prezumpsiyasi) qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak, degan qoidalar belgilangan edi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasi ishlashi uchun jamiyatning barcha bo'g'inlari faol bo'lishi, davlat organlaridan ushbu normaga amal qilinishini talab qila olishi lozim.


O'z navbatida, davlat organlari fuqaroning haq-huquqini buzsa, Konstitutsiyada ushbu norma mavjudligini va javobgarlik kelib chiqishini unutmashlari kerak! Kim bo'lishidan qat'iy nazar, sizning haq-huquqingizni qaysidir qonunni yoki normativ-huquqiy hujjatni vaj qilib buzishga, yoki talabingizni umumiy qilib javob berib, asossiz rad qilishga haqli emas. Demak, norma ishlashi shart! Shunday holat sodir etilsa, bevosita sudga murojaat etib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasida kafolatlangan huquqingizdan foydalaning.

Igor KUDRYAVSEV,

Toshkent davlat yuridik universiteti
professori

Buxoro tumanidagi 2-umumta'lim maktabida o'rindoshlik asosida o'qituvchi bo'lib ishlayotgan M. Narziyevaning ustama pulini ololmayotganidan norozi bo'lib qilgan murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganildi.

BUYRUQDA BOR,



AMALDA YO'Q USTAMA

Aniqlanishicha, muallif hozirda 6-umumta'lim maktabida asosiy xodim sanalib, 2023-yil 25-sentabrda buyruqqa asosan 2-umumta'lim maktabiga rus tili fani o'qituvchisi sifatida tashqi o'rindoshlik asosida ishga qabul qilingan. Maktab rahbariyati va M. Narziyeva o'rtasida mehnat shartnomasi rasmiylashtirilib, unda shartnoma tashqi o'rindoshlik asosida ekan qayd etilgan.

Maktab direktorining 2023-yil 30-iyundagi "Ustama tayinlash to'g'risida"gi buyrug'iga ilova qilingan ro'yxatning 8-bandiga muvofiq, o'qituvchiga 15 foiz ustama to'lanishi belgilangan bo'lsa-da, o'rindosh degan vaj bilan ustama to'lab berilmagan.

Maktab ma'muriyatining 2023-yil 29-sentabrdagi "Moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi buyrug'i bilan maktabning moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi hisobidan "1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan ilovadagi ishchi xodimlarga mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 50 foizi, ya'ni 490 ming so'm miqdorida moddiy rag'batlantirilishi belgilangan bo'lib, buyruqqa ilova qilingan ro'yxatning 16-bandida o'qituvchi M. Narziyeva ko'rsatilgan bo'lsa-da, xodim rag'batlantirilmagan.

Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 18-oktabrdagi 297-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 15-bandiga ko'ra, agar jamoaviy shartnomada yoxud ish beruvchi tomonidan kasaba uyushma qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishgan holda qabul qilingan boshqa mahalliy hujjatda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, o'rindoshlik asosida ishlovchilarga mehnat haqi, mukofot, qo'shimcha haq, ustama, rag'batlantirish to'lovlari shakli va tizimi tashkilotning barcha xodimlari uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mehnatga haq to'lashning vaqtbay shaklida o'rindoshlik asosida ishlovchi shaxslarga normalangan topshiriqlar belgilansa, mehnatga haq to'lash haqiqatda bajarilgan ish hajmi uchun yakuniy natijalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Yuqoridagilarga ko'ra, rus tili o'qituvchisi M. Narziyeva 2-umumta'lim maktabida soatbay emas, balki o'rindosh ekani, bu haqda tegishli buyruq va mehnat shartnomasida ko'rsatilgani sababli, unga nisbatan ustama, mukofot va rag'batlantirishlar to'liq joriy qilinishi kerak. Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri nomiga tagdimnoma kiritilib, aybdor shaxs ma'muriy javobgarlikka tortildi.

Abdurahimxo'ja BAFAYEV,

Buxoro tuman adliya bo'limi boshlig'i

ADABIY AYYON

"YAXSHI KUNLAR KELISHINI KUTMANG"



Suqrot faqat 70 yoshida musiqa asboblari chalinib o'rgangan va musiqachilikni mukammal darajada egallagan.

Rim senatori Mark Kanton 80 yoshida yunon tilini o'rgangan.

Mikelandjelo 80 yoshida eng asosiy asarlarini yaratgan.

Gyote 80 yoshida o'zining buyuk asari "Faust"ni yozib tamomlagan.

Nemis tarixchisi Leopold Ranke o'zining "Jahon tarixi" asarini 91 yoshida yozib tugatgan.

Isaak Nyuton 85 yoshida ham qizg'in va tinimsiz faoliyat olib borgan.

Buyuk yozuvchi Lev Tolstoy 82 yoshida cholg'i bilan pichan o'rishda yosh yigitlardan o'zib ketgan.

Kompozitor Igor Stravinskiy 88 yoshida go'zal musiqiy asarlar yaratgan.

Fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo 83 yoshigacha tinimsiz ishlagan.

Qadimgi yunon dramaturgi Sofokl 90 yoshida ham asarlar yozgan.

Bernard Shou 94 yoshida ham mehnat faoliyatini davom ettirgan.

Darvoqe, yaqinda amerikalik va yevropalik bir guruh olimlar sensatsion kashfiyotlarini e'lon qilishdi: inson miyasi fanda avval ta'kidlanganidek 25-30 yoshgacha emas, 50 yoshgacha rivojlanib borar ekan. Bundan tashqari, inson faol fikrlashni davom ettirsa, miya hech qachon qarimas ekan.

Qissadan hissa shuki – "qarish" degan kasallik mavjud emas, faqat inson o'z miyasini psixologik jihatdan noto'g'ri yo'naltiradi xolos. Hayotimizdagi eng katta to'siqlar bizning ichimizda. Ularni darhol olib tashlashimiz zarur. Bizning ruhimiz va ichki imkoniyatlarimiz yosh tanlamaydi. Toki, tirik ekanmiz bir pog'ona yuqoriga ko'tarilishga, navbatdagi marrani egallashga, ma'nau yuksalishga imkoniyatimiz bor. Yaxshi vaqtlar keladi, deb xomtama bo'lib yurmang. Yaxshi damlarning nomi – "Hozir", "Bugun" deb ataladi!

**Rus tilidan Jaloliddin SAFOYEV
tarjimasi**

Toshkent shahar adliya boshqarmasi jamoasi Mirzo Ulug'bek tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Gulnoza Kamalovaga onasi

GULNORAXON ayaning vafot etganligi munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

8 YANGI QO'LLANMA

Jamiyat rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari mehnat sohasida vujudga kelayotgan munosabatlarga yangi talablar qo'yimoqda. Mehnat munosabatlarida albatta muammolar, nizolar bo'lishi tabiiy.

Mehnat nizolari bu – ish beruvchi va xodim o'rtasida mehnat to'g'risida qonunlar va boshqa normativ hujjatlarini, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini qo'llash yuzasidan kelib chiqqan kelishmovchiliklardir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mehnat munosabatlarida ham yangi normalarni hayotga tatbiq etishni taqozo qilmoqda.

MEHNAT
HUQUQI –

Oliy sud sudyalari G. Parpiyeva va M. Rabiyevalar hammuallifligida chop etilgan "Mehnat huquqi – qonun himoyasida" qo'llanmasida aynan mehnat qonunchiligi normalarini amalda qo'llashning ayrim jihatlarini, ya'ni mehnat nizolarining sudlovga tegishliligi va sudga taalluqliligi, xodim va ish beruvchi o'rtasida mehnat shartnomasini tuzish hamda uni bekor qilish bilan bog'liq munosabatlar, shuningdek, mehnat daftarchasini yuritishga oid talablar kabi masalalar yoritilgan.

Mazkur qo'llanma, nafaqat sudyalari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, advokatlar uchun, balki turli tashkilot va muassasalar ish beruvchilari hamda fuqarolarga mo'ljallangani bilan muhimdir.

Qo'llanmada ishga qabul qilishni g'ayriqonuniy ravishda rad etishga yo'l qo'yilmasligi, qarindoshlarning davlat tashkilotida birga xizmat qilishini cheklash, ishga qabul qilish vaqtida talab qilinadigan hujjatlar, xodimni ishdan chetlashtirish, mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari, mehnat shartnomasini bekor qilishni rasmiylashtirish, mehnat daftarchasini va mehnat shartnomasining bekor qilinishi haqidagi huquqiy normalar batafsil yoritilgan.

Mehnat munosabatlaridagi har qanday muammoni bartaraf etishga yordam beradigan mazkur qo'llanma sizning eng yaqin yordamchisingiz bo'lishiga shubha yo'q. Qo'llanmani qo'lga olsangiz, bunga o'zingiz ham amin bo'lasiz!

Fikrimiz tasdig'i sifatida ayrim iqtiboslarni keltirib o'tamiz.



Konstitusiyamizning 42-moddasiga ko'ra, har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdorida kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalash huquqiga ega ekanligi mustahkamlangan.

QONUN
HIMOYASIDA

Ishga qabul qilishni g'ayriqonuniy ravishda rad etishga yo'l qo'yilmasligi

Mehnat kodeksining 119-moddasiga ko'ra, ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishga yo'l qo'yilmaydi. Quyidagilar ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishdir: mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash to'g'risidagi talablarni buzish; ish beruvchi tomonidan ishga taklif etilgan shaxslarni ishga qabul qilmaslik; ish beruvchi qonunga muvofiq mehnat shartnomasini tuzishi shart bo'lgan shaxslarni (ish o'rinlarining belgilangan eng kam soni hisobiga ishga yuborilgan shaxslarni, ish beruvchi alohida asoslar bo'yicha mehnat shartnomasini bekor qilgan shaxslarni, ular qayta ishga qabul qilingan taqdirda va boshqalarni) ishga qabul qilmaslik; homiladorlik yoki farzandlar borligi bilan bog'liq sabablarga ko'ra ishga qabul qilmaslik; sudlanganligi, shu jumladan tugallangan va olib tashlangan sudlanganligi sababli shaxslarni ishga qabul qilmaslik, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno, yoxud shaxslarni ularning yaqin qarindoshlari sudlanganligi, shu jumladan tugallangan sudlanganligi munosabati bilan ishga qabul qilmaslik; qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Qarindoshlarning davlat tashkilotida birga xizmat qilishini cheklash

Mehnat kodeksining 121-moddasiga ko'ra, o'zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslarning (otaxon, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotin, shuningdek er-xotinining ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo'lishiga bog'liq bo'lsa taqiqlanadi. Ushbu qoidadan istisnolar Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi mumkin.

XODIMNI
ISHDAN CHETLASHTIRISH

Mehnat kodeksining 151-moddasida ish beruvchi xodimni ishdan chetlashtirishi shart bo'lgan va haqli bo'lgan holatlar ko'rsatilgan.

Ish beruvchi xodimni ishdan chetlashtirishi shart bo'lgan holatlar:

- ✓ qonunchilikka muvofiq vakolatli davlat organlarining talabiga ko'ra;
- ✓ alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida ishga kelganida yoki ishdan bo'lganida;
- ✓ mehnatni muhofaza qilish sohasida o'quvdan hamda bilim va ko'nikmalari tekshiruvdan o'tmaganda;
- ✓ majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmaganda;
- ✓ xodim tomonidan mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ishni bajarish uchun tibbiy xulosaga muvofiq qarshi ko'rsatmalar aniqlanganda;
- ✓ tibbiy xulosaga muvofiq sog'lig'ining holatiga ko'ra to'rt oygacha muddatga vaqtincha boshqa ishga o'tkazishga muhtoj bo'lgan xodimni o'tkazish rad etilganda yoxud ish beruvchida ish mavjud emasligi munosabati bilan bunday xodimga tegishli ishni taklif etish mumkin bo'lmaganda;
- ✓ xodim mehnat to'g'risidagi qonunchilikka yoki mehnatni muhofaza qilish qoidalariga muvofiq foydalanilishi shart bo'lgan shaxsiy va (yoki) jamoaviy himoya vositalaridan foydalanmaganda.

Ish beruvchi xodimni ishdan chetlashtirishga haqli bo'lgan holatlar:

- ✓ Ish beruvchi xodimni ishdan chetlashtirishga haqli bo'lgan holatlar: – xodim karantinli va odam uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi tahdidi mavjud bo'lganda O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachining qarori asosida qonunchilikda belgilangan tartibda joriy etiladigan profilaktik emlashdan o'tishni rad etgan taqdirda (sog'lig'ining holatiga ko'ra qarshi ko'rsatmalar mavjud bo'lmaganda);
- ✓ xizmat tekshiruvi o'tkazilgan taqdirda ham, agar muayyan xodimning ishdan bo'lishi xizmat tekshiruvini o'tkazishga xalaqit beradi deb taxmin qilish uchun asosli sabablar mavjud bo'lsa. Ish beruvchi xodimni ishdan chetlashtirish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilguniga qadar butun davrga uni ishdan chetlashtiradi.

INSON
va qonunMUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

ISSN 2010-7247



9 772010 724700

Bosh
muharirAsliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza ErgashevaTahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.Navbatchi
Gulbahor Ortixov javeva
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch"
ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter ba-
zasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq
hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uyTiraj – 3500
Buyurtma – 3563Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5